



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING OILAVIY NIZOLARNI BARTARAF ETISHDA HIMOYA ORDERINING O'RNINI

Utepov Dilmurod Sheraliyevich,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi
faoliyati kafedrasi katta o'qituvchisi, mayor*

Ergashev Sardorbek Farhod o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim kursanti

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning zamirida avvalambor inson qadri yotadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish borasida bir qancha ijobiy ishlar qilinmoqda. Dono xalqimiz "Vatan oiladan boshlanadi" - deb bejiz aytishmagan. Negaki avvalo oila tinch ekan mahalla tinch, mahalla tinch ekan tuman, viloyat tinchdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ham bu xususida to'xtalib o'tar ekan, "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi"- deya o'z fikrlarini bayon qilgan. Bu avvalo "tuman-mahalla-oila-fuqaro" kesimida ish olib borish kerakligi belgilab berdi. Bugungi kunda mamlakatimizda oilalar soni 9 503 244 ta bo'lib, undan 30 yoshgacha bo'lgan yosh oilalar soni 2 886 296 tani, birgina joriy yil oktabr oyi yakuniga ko'ra esa yangi rasmiylashtirilgan nikohlar soni 214 923 tani tashkil etgan bo'lsa 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida 40 200 ta oilaviy ajrimlar qayd etilgan. Oila qurganiga 5 yil to'lmagan oilalar o'rtasidagi ajrimlar esa 17 628 tani tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, nafaqat yosh oilalarda balki turmush qurilganiga ancha yillar bo'lgan oilalarda ham ajrimlar soni ko'payayotganligini ko'rish mumkin.

So'nggi vaqtga kelib oila sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga qaramay, oila-turmush sohasidagi muammolar, ayniqsa, er-xotin, qaynona-kelin munosabatlarida qarama-qarshilik ko'payib borayotgani, oilada erlar tomonidan o'z ayollariga nisbatan ma'naviy, jismoniy va ruhiy tazyiqlarning avj olayotgani achchiq haqiqatdir. Bu sohadagi huquqbuzarliklarni oldini olish, oilada barqaror sog'lom muhitni qaror toptirish borasida qator qonunlar va qarorlar ishlab chiqarilgan. Bu borada 2023-yil 11-aprel kuni qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun bu sohadagi eng muhim vazifalarni belgilab berdi. Ushbu hujjat bilan sohadagi yuzga kelayotgan kamchiliklar, ko'p vaqtdan beri jamoatchilik tomonidan e'tirozlarga sabab bo'layotgan muammolarga barham berildi.

Yurtimiz oilalarida odatda ko'p a'zolik, ya'ni nafaqat er va xotin, balki ularning qarindoshlari ham munosabatlar zanjirida muhim rol o'ynaydi. Qaynona, qaynota va boshqa qarindoshlarning oiladagi kelinga zulm qilishi, uning so'zsiz bo'ysunishini, hech qanday imtiyozlar talab qilmasligini istashi yoki ota-onaning farzandga, kelinlarning betob qaynona yoki qaynotaga bosim o'tkazishi kabi holatlar kuzatiladi.



Afsuski, ana shu vaziyatlar aksar hollarda jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilishiga yoki oxirgi, kritik nuqtaga yetib borguncha zulmga bardosh berib, jiddiy tan jarohatlari, ruhiy zarbalar olishiga, sog'lig'ini tiklanmas darajada yo'qotishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, jamiyatda birovning ichki ishiga aralas- hmaslik, o'z tinchini o'ylash, muammoga beparvolik va toqatlilik holatlar mavjud. Oilaviy zo'ravonlik nazoratdan chiqib, muammo kattalashgach, qilingan murojaatlar ko'pincha profilaktika inspektori yoki mahalla fuqarolar yig'inida tezda yopiladi, sabablar o'rganilmaydi, faqat o'sha vaziyatning o'zigagina taalluqli, vaqtinchalik choralar bilan cheklanib qolinadi. Natijada muammo chuqurroq ildiz otib boraveradi. Achinarlisi ko'pincha jabrlanuvchining o'zi murojaat qilmaydi yoki ishni javobgarni jazolashgacha olib bormay, da'vosini qaytarib oladi. Jazolanmagan jinoyatlar esa vaqt o'tgani sari kattalashishi yoki yana takrorlanishi sir emas.

Boshqarib bo'lmaydigan, kishi hayotiga xavf tug'diradigan, uni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazadigan oilaviy zo'ravonlik katta ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. U bilan davlat miqyosida kurashish lozim.

Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonunlar - 2016" deb nomlangan hisobotida aytilishicha, hozirda dunyodagi 46 mamlakatda oilaviy zo'ravonlikni taqiqlovchi qonunlar mavjud emas va bu o'zining salbiy jihatlarini ko'rsatmay qolmayapti.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha xotin-qizlar umumiy sonidan 35 foizi, ya'ni har uchinchisi zo'ravonlikka duch kelmoqda. Bu degani, ushbu muammo jahondagi hech bir mamlakatni chetlab o'tmagan, u xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan yoki uchinchisi dunyo davlati bo'lsa ham. Shunga yarasha, bu muammoni bartaraf etish yo'nalishida ko'pgina mamlakatlar o'ziga xos tajriba to'plaganlar. Bunda asosiy tamoyil - davlat va nodavlat tuzilmalarining jamoatchilik bilan doimiy aloqada bo'lishidan iborat. Chunki zo'ravonlik, har qanday jinoyat kabi, ogohlik va shaffoflikdan "qo'rqadi", zo'ravonning xatti-harakatlari jamiyat tomonidan qoralanishi esa uni to'xtatishning eng samarali yo'li. Shu jihatdan O'zbekiston ham turli mutasaddi tuzilmalar va jamoat tashkilotlar hamda keng jamoatchilikning bu yo'nalishdagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi xorijiy tajribasidan foydalanmoqda. Bu ayniqsa tegishli yo'nalishda qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ustida ishlashda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo'nalishida ham yangi tajribalar qo'llanilmoqda. Bu ham juda muhim, chunki xuddi o'sha himoya orderi yoki boshqa imkoniyatlardan foydalanish uchun ham zo'ravonlikka duch kelayotgan xotin-qizlar ular haqida bilishlari lozim. Shundagina ular o'z huquqlarini ro'yobga chiqara oladilar.

O'zbekistonda 2021-2022-yillarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga oiladagi kamsitishlar bo'yicha 72 mingta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 61 mingdan (85 foizdan) ortig'i xotin-qizlarning kamsitilishiga taalluqli bo'lgan., BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qo'mitasi tavsiyalaridan kelib chiqqan holda, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun alohida ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilandi.

Endilikda er yoki xotin o'z turmush o'rtog'ining o'z huquqlarini amalga



oshirishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa yoki tahqirlasa, qo'rqitsa, yaqin qarindoshlardan ajratib qo'ysa, qilmishning og'irlik darajasidan kelib chiqib, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Masalan, shaxs o'z turmush o'rtog'ini haqoratlab, qadr-qimmatini tahqirlasa, 6 mln so'm jarimaga tortiladi. G'arazli niyatlar bilan kaltaklab, badaniga og'ir tan jarohati yetkazsa, 12 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi.

Ma'lum bo'lishicha, 2022 yilda ilgari himoya orderi berilgan xotin-qizlarning 12 nafari takroran zo'ravonlikka uchragan.

Zo'ravonlik - xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik);

Himoya orderi - tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu Qonunda belgilangan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladigan hujjatdir.

Tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan, ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar hisobini yuritish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish profilaktika inspektorining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Himoya orderi quyidagi holatlarda beriladi:

- tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning murojaati;
- jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari, shu jumladan, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarlar;
- tazyiq yoki zo'ravonlik holatlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan aniqlanishi;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar.

Tazyiq va zo'ravonlik to'g'risida xabar bergan shaxslar va tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qo'riqlanadi. O'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchilarning himoya orderini berish to'g'risidagi arizasi ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko'rib chiqiladi. Profilaktika inspektori ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari tomonidan taqdim etilgan murojaatlar va xabarlarni 24 soat mobaynida o'rganib chiqadi hamda o'rganish davomida:

- jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar hamda boshqa shaxslar bilan holat yuzasidan suhbat o'tkazadi;

- jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning turmush tarzi, tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishining kelib chiqishi sabablari va shart-sharoitlarini o'rganadi;

- jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.



Himoya orderi uch qismdan iborat bo'lib:

S birinchi qismi (asli) to'ldirilgandan so'ng jabrlanuvchilarga beriladi;

S ikkinchi qismi (nusxasi) zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga beriladi;

S uchinchi qismi profilaktika inspektorida qoladi.

Himoya orderi **o'ttiz kun** muddatgacha beriladi (xavf bartaraf etilmagan taqdirda bir yilgacha muddatga jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan uzaytiriladi) va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

S tazyiq o'tkazishni va zo'ravonlik sodir etishni taqiqlash;

S tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasiga yo'l qo'yiladi);

S tazyiq o'tkazilgan va zo'ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo'lishini taqiqlash;

S tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash, shuningdek, ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash;

s tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki unda ko'rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek, qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

Himoya orderida qonun hujjatlarida belgilanmagan boshqa cheklovlarni nazarda tutish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 11.04.2023-yil kunidagi **“Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”**gi O'RQ-829-son qonuniga asosan himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish masalasini hal qilishda, sud nazarda tutilgan cheklovlardan tashqari quyidagi cheklovlarni qo'llashga haqli:

J tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning muayyan joylarga borishini taqiqlash;

• **S** narkologik kasallikdan ambulatoriya yoki statsionar sharoitlarda davolanish kabi majburiyatlardan birini yoki bir nechtasini tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga yuklatish;

tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi



yashaydigan uy-joy maydonidan yoki uning bir qismidan foydalanish, jabrlanuvchining ish joyiga yoki u joylashgan boshqa joylarga yaqinlashish huquqini vaqtinchalik cheklash.

Himoya orderining amal qilishi quyidagi holatlarda tugatiladi:

- jabrlanuvchi himoya orderini tugatishni so‘rab murojaat qilganda;
- himoya orderida belgilangan muddat (uzaytirilgan muddat) tugaganda;
- jabrlanuvchi yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsdan biri sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
- sodir etgan jinoyati uchun jabrlanuvchi yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biriga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanganda;
- jabrlanuvchilar yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biri sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etilganda;
- jabrlanuvchilar yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biri majburiy davolanishga yuborilganda;
- jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning biri qonun hujjatlariga muvofiq doimiy yashash joyidan uzoq muddatga boshqa mamlakatga chiqib ketganda;
- jabrlanuvchi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslardan biri vafot etganda.

Amalda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxsga himoya orderi ichki ishlar idoralari tomonidan 30 kunga berilar edi, endilikda “Xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan esa bunday orderning muddati sud tomonidan 1 yil muddatgacha uzaytirilishi belgilanmoqda. Bundan ko‘rinadiki oldin ushbu harakat faqat profilaktika katta inspektori tomonidan amalga oshirilgan va bunda o‘ziga yarasha bir qancha kamchiliklar aniqlangan.

Shuningdek, himoya orderi bilan zo‘ravonga nisbatan jabrlanuvchi yashaydigan turar-joy maydoni yoki uning bir qismidan foydalanish, jabrlanuvchining ish joyi yoki boshqa joylarga yaqinlashishini muayyan vaqtga cheklash, muayyan joylarda bo‘lmaslik, narkologik kasallikdan davolanish kabi qo‘shimcha majburiyatlar yuklatilish mumkinligi belgilanmoqda.

Bu borada oilada zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslar va ularning qarovsiz qolayotgan voyaga yetmagan farzandlari uchun sud qarori chiqqunga qadar aniq bir mexanizm bilan tartibga solinadigan maxsus vaqtinchalik boshpana maskanlari tashkil qilinishi darkordir. Masalan, 2008-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo‘yicha Reabilitatsiya etish markazi tashkil etilgan edi. Shu kabi reabilitatsiya markazlari oilada zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan odamlar uchun ham bunyod etilishi lozim. Markazlar jabrdiydalarga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va yuridik yordam ko‘rsatishi kerak. Bunday markazlar nafaqat shaharlarda, balki viloyat va qishloq hududlarida ham ochilishi lozim. Chunki sodir etilayotgan zo‘ravonlik va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar nafaqat shaharlarda, balki qishloq hududlarida sodir



etilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, xalqimizning tinch va osuda hayot kechirishi, jamiyatimizning rivoj topishi uchun barchamiz birdek mas'ulmiz. Shunday ekan bu boradagi majburiyatlarimizni vijdonan ado etgan holda oilaviy zo'ravonliklarni oldini olish borasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etib yashash barchamizning ham fuqarolik, ham insoniy burchimizdir. Muqaddas dinimizda ham insonlar bir-birlarini aslo kamsitmasligi, o'zaro hurmat va ishonch ila, milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan ishlarni tark qilishlari keltirib o'tilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T., 2023, 126-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // - URL: <http://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // - URL: <http://lex.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi (16.09.2016 y.) qonuni // O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. - T., 2016. - № 38. - 438-m.
5. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2019 yil 2 sentabr, O'RQ-561-son // URL: <http://www.lex.uz>.
6. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasiunur ayrim qonun xujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, 2023 yil 11 aprel, O'RQ-829-son // URL: <http://www.lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2020 yil 4 yanvar, VMQ 3-son // URL: <http://www.lex.uz>.
8. Yugay, L. Y. "Biometrics as a means of monitoring migration processes." (2022).
9. Югай, Людмила. "Методика компьютерно-технической экспертизы по преступлениям в сфере цифровых технологий." Противодействие правонарушениям в сфере цифровых технологий и вопросы организационно-правового обеспечения информационной безопасности 1.01 (2022): 68-76.
10. Югай, Людмила Юрьевна. "БИОМЕТРИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ В БОРЬБЕ С ТЕРРОРИЗМОМ И ЭКСТРЕМИЗМОМ BIOMETRIC TECHNOLOGIES AS A TOOL IN THE FIGHT AGAINST TERRORISM AND EXTREMISM." ЭКСТРЕМИЗМ–НОВЫЕ ВЫЗОВЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ (2022): 81.
11. Югай, Людмила. "Вопросы классификации биометрической идентификации личности в эпоху цифровизации." Актуальные вопросы и перспективы цифровизации судебно-правовой деятельности 1.01 (2022): 181-187.
12. Yugay, Lyudmila. "Biometric identification as an innovation in



criminalistics." Society and innovations, Special 7 (2022): 289.

13. Югай, Людмила. "Совершенствование института адвокатуры в контексте конституционных реформ." Общество и инновации 4.8/S (2023): 1-9.

